

## JADIDCHILIK XARAKATI

**Xasanova Ra'noxon Inomiddinovna**

*O'zbekiston tuman 2-son kasb-hunar  
maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O'rta Osiyo, Kavkaz, O'rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy, madaniy-ma'rifiy tiklanish – jadidchilik harakati sifatida namoyon bo'ldi. Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari suradilar. Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy isloxotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganlar. Ushbu maqolada yuqorida muallif tomonidan qayd etilgan fikrlar xaqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** *jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, "Behbudiya", "To'ron,"ibratxona, "Munozora".*

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jixatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko'rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi.

Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik xarakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini xayotga tadbiiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik xarakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma'rifatchilik;

2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;

3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo'ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli "usuli savtiya", ya'ni "yangi usul" nomi bilan shuxrat qozondi. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni bildiradi. Ismoilbek g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari "jadidlar", uning g'oyalari esa "jadidchilik" nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o'zining "Tarjimon" (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni

turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaxarlarga xam tez yoyiladi.

I. Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi. 1898 yilda To'qmoqda xam shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" (1903), Munavvarqorining "Adibi avval" (1907), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912) darsliklari aloxida e'tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.

2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.

3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsha, turkiy tilda bermalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy xarakatlar Turkistonga xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida xam ko'rindi. Chunonchi, 1906 yilda Ismoil Obidovning muxarrirligida "Taraqqiy", shu yili Munavvarqori muxarrirligida "Xurshid", 1907-1908 yillarda Abdulla Avloniy muxarrirligida "Shuhrat", Axmadjon Bektemirov muxarrirligida "Osiyo" ro'znomalari chop etildi.

Lekin tez orada chor ma'muriyati ashaddiy shovinist N.P. Ostroumov bildirishnomasiga asoslanib, bu ro'znomalarni man etdi.

Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913-1915 yillarda "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Buxoroi sharif", "Turon", 1917 yilda esa "El bayrog'i",

“Kengash”, “Xurriyat”, “Ulug’ Turkiston” gazetalari, “Oyina” jurnali kabi ommaviy axborot vositalari xam paydo bo’ldi.

Mahalliy xalqning o’qib savod ochishiga qarshilik ko’rsatgan chor Rossiya taziyoqidan so’ng Jadidchilik yashirin tusga o’tdi. Chunonchi, Toshkent politsiyasi maxkamasiga yetkazishicha, maxfiy guruxlardan birini o’qituvchi Axmadjonov boshqargan va u, asosan, milliy ziyolilar xamda o’quvchi yoshlar vakillaridan tarkib topgan. Qo’qondagi maxfiy gurux 50 kishidan iborat bo’lgan. Andijondagi jadidlarning yashirin tashkiloti “Taraqqiyparvar” deb atalib, maxfiy ishlar bo’yicha politsiya bo’limining ma’lumotlariga qaraganda, uning raxbarlaridan biri Ubaydulla Xo’jayev bo’lgan. Shuningdek, podsho ayg’oqchilari 1909-1916 yillar davomida mudarris va maktab o’qituvchilarining o’lkani boshqarishda isloxotlar o’tkazish kerakligi xaqida targ’ibotlar olib borayotganliklarini bir necha marotaba xukumatga yetkazganlar.

1917 yil 27 fevralda Petrograd da bo’lgan demokratik inqilob Turkiston o’lkasiga ham o’z ta’sirini o’tkazdi. Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun harakat boshlanib ketdi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o’lka muxtoriyati masalasi asosiy masala bo’lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g’oyasi nafaqat demokratik ziyolilar orasida, xatto oddiy odamlar o’rtasida ham ancha ommalashgan edi.

Rossiya Fevral demokratik inqilobi arafasida Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy xarakterga aylandi. Agar Birinchi Jaxon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo’lsalar, Fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining “taraqqiyparvarlar” oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga maxalliy axoli xuquqlarini kengaytirish tomon o’lkani boshqarish yuzasidan asosli isloxotlar o’tkazish, o’lkaga Davlat Dumasidan axoli soniga qarab o’rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta’minlash, chorizmni konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi.

Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli axoli ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o’z ortlaridan ergashtira oldilar, ular ongida musulmonlar birligini mustaxkamlash, jipslashtirish xissini uyg’otdilar. Ammo ular tez kunlarda tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat xukumat va uning Turkiston Qo’mitasi xam o’lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo’lini tutmoqda. Chunonchi, bu siyosat Ta’ sis majlisini chaqirishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo’ldi.

1917 yilning mart-aprel oylari o’lkaning siyosiy uyg’onishida burilish davri bo’ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilari va islom ulamolarining yetakchilari bo’lgan Maxmudxo’ja Behbudiy (1875-1919), Munavvar Qori (1878-1931), Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev (Ubaydulla Xo’jayev; 1882-1938), Fitrat (1886-1938), Fayzulla Xo’jayev (1896-1938), Sadridin Ayniy (1878-1954), Mustaf o Cho’qay (1886-1941), Muhammadjon Tinishboyev (1879-1939), Sherali Lapin (1868-1919), Axmad Zakiy Validiy (1890-1970), Obidjon Maxmudov (1858-1936) O’lkada 1917 yil mart oyida yangi tashkil qilingan “Sho’roi Islomiya”, 1917 yil iyun oyida “Sho’roi Ulamo”, “Turon”

Jamiyatlari va 1917 yil iyul oyida tashkil qilingan “Turk odami Markaziyati (federalistlar) firqasi”, 1917 yil sentyabr oyida “Ittifoqi musulmin” siyosiy partiyalarining to‘zilishida muhim rol o‘ynadilar.

Shu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo xayot, yo mamot muammosiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular xukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-xududiy muxtoriyat olish uchun astoydil xarakat qilishga kirishdilar. Jadidlarning dasturiy xujjatlarida diqqat-e‘tibor milliy-xududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari-Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatlariga taalluqli bo‘lgan masalalar bo‘yicha, qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o‘lka xokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizmlarini ishlab chiqish, o‘z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi.

Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik xuquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jixatdan kafolatlanishi lozim bo‘lgan demokratik jamiyatni shakllantirish-ustuvor maqsad qilib belgilandi. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi xaqidagi o‘z g‘oyalarini xayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o‘rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantirilgan Rossiya Ta‘sis majlisini chaqirish bilan bog‘langanliklari xam diqqatga sazovor. 1917 yil iyulda “Sho‘roi islomiya”dan “Sho‘roi Ulamo” tashkiloti ajralib chiqdi. Ammo Ta‘sis majlisida o‘rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki oqimning keyinchalik qo‘shilishiga va “Turk Adami markaziyati” nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi.

1917 yil 7 aprelda Petrograddagi Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N.Shchepkin raisligida Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti tashkil qilindi. Komitet tarkibiga 9 kishi kirgan bo‘lib, ularning to‘rttasi Alixon Bukeyxonov (1868-1937), M. Tinishboyev, Sadri Maksudov, A. Davletshinlar turkiy xalqlar vakillari edi. Keyinchalik Turkiston Komitetining tarkibi o‘zgartirildi.

Jadidchilik 1917 yilda ma‘rifatchilik harakatidan siyosiy harakat darajasiga allaqachon ko‘tarilgan edi. O‘sha 1917 yilning o‘zida to‘rt marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi o‘tkazildi. 1917 yil 16-23 aprelda Toshkentda bo‘lgan I qurultoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish g‘oyasi olg‘a surildi. Bu g‘oya Turkiston xalqlarining o‘z milliy davlatchiligini tiklash yo‘lidagi dastlabki qadami edi.

Butunturkiston musulmonlari I qurultoyining oxirgi majlisida Markaziy rahbar organ — Turkiston o‘lka musulmonlari Kengashi (Kraymussovet) tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Uni tuzishdan asosiy maqsad milliy ozodlik harakatiga tashkiliy va markazlashtirilgan xususiyat kasb etish uchun bir-biri bilan tarqoq aloqada bo‘lgan jamiyat, qo‘mita va ittifoqlarni birlashtirish edi. Turkiston musulmonlari Markazi Kengashiga Mustafo Cho‘qay rais, Zakiy Validiy To‘g‘on bosh kotib, Munavvar Qori, Behbudiy, U. Xo‘jayev, O. Mahmudov, Toshpulatbek

Norbutabekov, Islom Shoahmedov va boshqalar a'zo qilib saylandi Munavvar Qori va Sadriddinxon Sharifxo'ja boshchiligida Toshkent qo'mitasi tuzildi. Shuningdek, Behbudiy rahbarligida Samarqand va Nosirxon To'ra yetakchiligida Farg'ona bo'limi xam tashkil topdi. Markaziy shuroning organi sifatida "Najot" (muharriri — Munavvar qori), keyinchalik "Kengash" (muxarriri — Zakiy Validiy To'g'on) gazetalarida chiqa boshladi. Shuningdek, 1917 yilda nashr qilingan "Ulug' Turkiston", "Turon" gazetalarida muxtoriyatchilik g'oyasi bilan sug'orilgan maqolalar chop kilindi. Shunday qilib, 1917 yil bahorida Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muxim qadam tashlandi. Tarixda ilk marta Butunturkiston miqyosida musulmonlar qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf-odatlar va turmush tarzini izchil turib ximoya qilishi aytili. Bu manfaatlarining ifodachisi bo'lgan Milliy markaz — Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi tashkil etildi.

Afsuski, birlashish jarayonlari har doim xam bir tekis rivojlanmadi. Asr boshidan buyon davom etayotgan "jadid-qadim" nizolari demokratik harakat saflarida parchalanish yuz berishiga olib keldi. Maълumki, 1917 yil 14 martda Toshkentda "Sho'roi Islomiya" tashkil topgan edi. Aksariyati jadidlardan iborat bu tashkilot aъzolari Turkiston mustaqilligi uchun kurash olib bordilar. 1917 yil iyun oyida Munavvar qori boshchiligidagi "Shuroi Islomiya" tashkilotidan "Sho'roi Ulamo" ajralib chiqdi. Sherali Lapin uning Toshkent shu'basiga asos soldi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Qo'qon shahrida xam "Sho'roi Ulamo" jamiyati tuzildi. Lekin ikki jamiyat o'rtasida g'oyaviy ixtiloflar mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan kelisha olmasdilar. Chunki "Sho'roi Ulamo" jamiyati dasturida islom dinining an'anaviy asoslari bo'yicha ish ko'rishini ma'lum kilsa-da, aslida Lapin boshchiligidagi Toshkent ulamochilari avval rus monarxiyasi, so'ngra bolshevizm g'oyalari bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirishga behuda urindilar. "Sho'roi Ulamo" jamiyati o'z maqsadlari targ'iboti uchun "Al-Izoh" jurnalini chiqara boshladi (muharriri — Abdumalik hoji Nabiyev) har ikki jamiyat o'rtasida g'oyaviy kurash, xususan, matbuot sahifalarida avj olib ketdi.

1917 yil 10 sentyabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. "Sho'roi Islomiya" tashabbusi bilan chaqirilgan ushbu qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Ushbu qurultoyda qabul qilingan rezolyutsiyalarda milliy demokratiya o'zi tutadigan yo'lning muhim asoslarini birinchi marta qat'iy qilib aytdi: hukumat demokratik siyosat yurgizadigan bo'lsa, ana shundagina musulmonlar bu hukumatda ishtirok etadilar. Ikkinchi qurultoyda faqat Milliy markaz — Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub yerli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin degan fikr qat'iy qilib qo'yildi. 1917 yil 20 sentyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining ko'rultoyi "ulamochilar" bilan "Sho'roi islomchilar" o'rtasidagi uzoq bahslarga qaramay, nihoyat, kelishish va murosa yo'lini topdi. Qurultoyda "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turon" va boshqa siyosiy

tashkilotlarni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston mintaqasi uchun umumiy bo'lgan "Ittifoqi musulmin" degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi.

Qurultoy ishidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining bo'lajak siyosiy tuzumini belgilash edi. O'sha paytda Toshkentda nashr qilingan "Ulug' Turkiston" gazetasida yozilishicha, "Qurultoy Mulla Muhammadxo'ja eshon va Mulla Siddiqxo'ja eshonlarning boshqaruv shakli haqidagi nutqlarini tinglab, duo-yu ijobat ila Turkiston Muxtoriyatini tayin etishga jazm qildi". Qurultoy muxtoriyatga "Turkiston Federativ Respublikasi" degan nomni qo'yib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo'lg'usi davlat tuzumining bosh tamoyil va me'yorlarini belgilab berdi.

1917 yil 25 oktyabrda (yangi sana bilan 7 noyabrda) qurol kuchiga tayangan V.I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar (kommunistlar) Petrogradga Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni zo'ravonlik yo'li bilan egallashdi. Rossiyaning markazida yuz bergan voqealarning aks-sadosi oradan ko'p o'tmay Turkistonga ham yetib keldi. 28 oktyabrda Toshkentning yangi shaharida yevropalik ishchilar va soldatlar bolsheviklarning qutqusi bilan qurolli to'qnashuvlarni boshlab yuborildi. Ular general Korovichenko qismlaridan ustun keldilar. 1 noyabrda Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti qamoqqa olindi. Toshkentda zuravonlik yo'li bilan sovet rejimi o'rnatildi.

1917 yil sentyabrning oxirida, hokimiyat sho'rolarga o'tishi munosabati bilan, Turkiston musulmonlarining III o'lka qurultoyi yig'iladi. Uning qarorlarida, jumladan, shunday deyiladi: "Turkiston o'lkasining 98 foiz nufusini tashkil etguvchi 10 million musulmon Rus inqilobi e'lon qilgan Hurriyat, Tenglik, Birodarlik asoslarida milliy madaniy muxtoriyat huquqiga mutlaq ravishda ega; Mahalliy hokimiyat birinchi navbatda, musulmon vakillaridan hamda ma'lum miqdorda o'zga siyosiy tashkilotlar vakillaridan tashkil topib, ta'sis etiluvchi lozim. Hokimiyatning tasodifiy va yerli aholi manfaatlariga yot bo'lgan kichik guruhlardan tuzilgan ishchi, askar va dehqon tashkilotlarining qo'lida jamlanuvchi xalqchilik asoslariga ziddir va mahalliy musulmon xalqiga odil hayot tuzumini ta'minlab beruvi amri maholdir".

Qurultoy, xulosa sifatida, quyidagi qarorlarni qabul kiladi:

1) Toshkent shahrida o'lka fuqarosini boshqaruvchi 12 kishidan iborat Turkiston o'lka qo'mitasini ta'sis etuv; bulardan 3 nafari ishchi, askar va dehqon sho'rolari qurultoyidan, 3 nafari shahar va ijroqo'm idoralaridan, 6 nafari musulmon qurultoyidan. Mazkur qo'mita zimmasiga, to ta'sis majlisi (Uchr. Sobraniye) Turkistonda Maxsus idora yo'lini o'rnatguncha, Rusiya jumxuriyatining Muvaqqat Hukumatiga keng vakolatga ega Qo'mita ro'yxatini tasdiq uchun yo'llash va hokimiyatni qo'lga olish yuklanadi.

2). Toshkentda 24 kishidan iborat Turkiston o'lka kengashini ta'sis etuv; bunga 5 a'zo ishchi, askar va dehqonlar qurultoyidan, 5 a'zo o'lka musulmon qurultoyidan kiritilsin. ("Turkestanskiy vestnik", 25 noyabr, 1917 yil). Likoshin aytmish iltifot bu qarorda ham zahirdir. Ammo hokimiyat bu orada qo'ldan qo'lga o'tib, navbat Muvaqqat hukumat yuborgan general Korovichenkoga tegadi. O'zaro murosani

aniqlash bilan ovora ovruvaviy kuchlarning qulog'iga mahalliy xalqlarning ovoziyu talablari chalinmaydi. Shunga qaramay, mahalliy xalq Ta'sis majlisiga tayyorgarlikni kuchaytirib, unga yuboriladigan nomzodlarni ko'rsata boshlaydi. Nomzodlar ro'yxatiga samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiy, xo'jandlik Kamol Husayn, toshkentlik Mustaf Cho'qayev, Ubaydulla Xo'jayev ham kiritiladi.

Shu tarzda Turkistonda muxtoriyat hukumati yuzaga kelmasdan ancha oldin jamiyatning keng qatlamlari vakillari, ilg'or ziyolilar bu harakatda faol qatnashib, uning poydevorini yaratishga zamin hozirladilar.

Hujjatlarning guvohlik berishicha, 1917 yilning kuziga kelib, o'lka shaharlari, viloyatlari va uyezdlarida aholining hokimiyatni sovetlarga o'tishini talab qiluvchi faol chiqishlari kuzatilmagan. Aksincha, joylardan kelib turgan xabarlar va telegrammalarda Muvaqqat hukumatni ko'llab-quvvatlash haqida gapirilar ekan, bolsheviklar va boshqa ekstremistlarning hokimiyatni sovetlarga berish haqidagi talablari fosh etilar, mamlakat taqdirini qiladigan Ta'sis Majlisini chaqirish ma'qullanardi. Demak, 1917 yil noyabr oyining boshida bolsheviklar faqatgina qurol kuchiga tayangan xolda Toshkent shahrida hokimiyatni ko'lga kiritishdi. Bu xolni arxivlarda saqlanib qolgan o'sha davrga oid ko'plab rasmiy hujjatlar xam isbotlaydi. Turkiston respublikasi rahbarlaridan biri keyinchalik quyidagi fikrni e'tirof etishga majbur bo'lgan edi: Turkiston bir necha o'n yillar mobaynida chorizm mustamlakasi bo'lib keldi va bu g'oya barcha ijtimoiy kayfiyat va munosabatlarda o'zining uchmas muhrini qoldirdi. Chor Rossiyasi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik kayfiyati va siyosati amaldorlar va xizmatchi unsurlardan tashqari hatto rus temiryulchilariga xam o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Shuning uchun to'ntarishning boshidayoq, sovet hokimiyatini bu yerda faqat rus kishilari amalga oshirdi. Tub aholidan esa mustamlakachi mahalliy hokimiyatga aloqador kishilargina unda qatnashishi mumkin bo'lib, tub aholining qolgan qismi uchun bu g'oya begona va tushunarsiz edi".

1917 yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan o'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s'ezdida 15 kishidan iborat hukumat—Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuzildi, unda 8 o'rin sul eserlarga, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Biroq hukumat faqat yevropaliklardan iborat bo'ldi. Turkiston Xalq Komissarlar Soveti raisi lavozimini kasbi chizmatchi bo'lgan bolshevik F. Kolesov egalladi, harbiy komissar qilib izvoshchi Perfil'ev, boshqa komissarlik lavozimlariga xam shunga o'xshaganlar tayinlandilar. Hukumat tarkibiga tub aholi vakillaridan bitta xam vakil kiritilmadi. Bu tasodifiy hol emas edi. Turkistonda so'l inqilobiy siyosiy guruhlar, ularning namoyandalaridan tuzilgan hukumat, birinchi galda bolsheviklar mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal qildilar. Shu bilan birga oktyabr tuntarishidan keyin Rossiyada bo'lgani singari, Turkistonda xam inqilobiy aqidalarga, eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Asosiy inqilobiy kuch — proletariat va kambag'al dehqonlar, aholining boshqa qatlamlari esa reaksion va ekspluatator guruhlar deb e'lon qilindi. Mulkdorlar — ekspluatatorlar, ezuvchilar; milliy ziyolilar, o'qimishli, obro'-e'tiborli xalq vakillari — milliy burjuaziya

korchalonlari va malaylari; islom dini rahnamolari — reaksiyon qatlam deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlab yuborildi.

Turkiston o'lkasidagi dastlabki sovet hukumatining ziddiyatli tarkibi mintaqada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi. "Turkistondagi mustamlakachilik hatto sovet hokimiyati taraqqiyotining butun bir yo'nalishini belgilab berdi".

Mahalliy millatlarning siyosiy jarayonga aralashtirilmaganligi o'lka xalqlarining sovet hokimiyatiga bo'lgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi. Hatto Turkistondagi yevropalik aholining demokratik qatlamlari ham bolsheviklar va sul eserlarning bunday makkorona siyosatiga qarshi chiqdilar. Hukumat tuzishda ulug' davlatchilik shovinizmi aqidalariga amal qilinganligi yangi hokimiyatning siyosiy faoliyatini oldindan belgilab berdi.

Hokimiyat bolsheviklar qo'lga o'tishi bilan o'lkada Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga avvalo jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi. Bu tasodifiy hol bo'lmasdan, bolsheviklar hukmronligi nafaqat ag'darilgan sinflar, balki bolsheviklar bilan kelishmaydigan mahalliy aholining katta qismi ustidan zo'ravonlik o'rnatilgandagina saqlanib qolishi mumkin edi. Turkiston Xalq Komissarlar Soveti 1917 yil 28 noyabrda o'lkada qizil gvardiya bo'linmalari tuzish haqida qaror qabul qildi. Bu bo'linmalar sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi ko'tarilgan dastlabki stixiyali chiqishlarni bostirishda faol ishtirok qildi. Shu vaqtning o'zida Butunrossiya Favqulodda komissiya (cheka) organlari va inqilobiy tribunallar tashkil etildi. Proletariat diktaturasining bu jazo organlari ozodlik va demokratiyani bo'g'ishda, o'zgacha fikrlaydigan kishilarni yo'q qilishda muhim qurol bo'ldi va Vatanimizning yangi tarixida o'zining mash'um asoratlarini qoldirdi.

Turkiston Xalq Komissarlar Soveti 1917 yil oxirlarida o'z qarori bilan "Shuroi Islomiya" va boshqa mahalliy demokratik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning rahbarlari keyinchalik Turkiston Muxtoriyati hukumatiga qo'shildilar, ayrimlari istiqloqlilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qildilar. Shunisi xarakterliki, "Sho'roi Ulamo" tashkilotining Toshkent shu'basi faqat 1918 yil 13 mayda yopib qo'yildi. Shunday qilib, dastavval Rossiya markazida qaror topgan sovet rejimi Turkiston o'lkasida ham o'rnatildi. Zo'ravonlik va xalqlarni ezishga qaratilgan sovet rejimi o'zining ilk kunlaridan boshlab Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik tizimi sovet Rossiyasi davrida yanada takomillashtirildi. Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning faoliyati siyosiy partiyalar tuzilishi, ular tomonidan dasturiy hujjatlar qabul qilinishi Turkistonda milliy harakatning keng quloch yoyganidan dalolat berar edi. Biroq yuqarida ko'rsatib o'tilganidek, Petrograddagi oktyabr to'ntarishi oqibatida 1917 yil oktyabr-noyabr oylarida Turkiston o'lkasida, xususan, Toshkent va Qo'qonda yuz bergan voqealar milliy ozodlik harakatini butunlay boshqa yo'nalishdan ketishga majbur qildi.



1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lkamusulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy ishining butun tafsilotlari o'sha davr gazetalariga tarix uchun muhrlab qo'yilgan.

Mustafo Cho'qay qurultoyi ochar ekan, Rossiya va Turkistonning siyosiy va iqtisodiy ahvoli xususida ma'lumot beradi. Uning aytishicha, Markazda yuz berayotgan voqealar, chekka o'lkalarni va shu bilan birga Buyuk milliy inqilobni qutqaruv yo'llarini mustaqil muhokama etuvini taqozo qilar. Oktyabr xunrezligini boshdan kechirgan Rossiya va Turkiston o'z taqdirlari haqida mulohaza yuritmoqlari lozim.

Ma'lumki, musulmonlarning ushbu nufuzli qurultoyi va unda qabul qilingan qarorlar uzoq yillar davomida millatchilar guruhining yig'inidan e'lon qilingan burjua muxtoriyati deb noto'g'ri talqin qilib kelindi. Hujjatlar esa ushbu xolning butunlay aksi bo'lganligini isbotlaydi. Masalan, Turkiston jadidlarining otasi sanalgan Behbudiy o'z ma'ruzasida qurultoyning Turkiston xalqlari tarixida ulkan ijobiy, tarixiy hodisa va burilish davri ekanligini ta'kidlab, "Qurultoyimiz qabul qilayotgan qarorlar shuning uchun xam ahamiyatliki, unda Turkiston aholisining yevropalik vakillari xam ishtirok etmoqdalar", deydi. Behbudiy va Obidjon Maxmudov qurultoy hay'atida musulmonlar bilan bir qatorda boshqa milliy guruhlarning ham vakillari bo'lishini yoqlab chiqdi.

Turkistonni boshqarish shakli uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida so'zga chiqqanlarning ko'pchiligi Turkistonning muxtor respublika deb e'lon qilinishi o'lka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqan va unga mos tushishini uqtirdi. Muxtoriyat va mustaqillik e'lon qilish fikrini hamma ko'llab-quvvatladi. Qurultoyda 1917 yil 27 noyabr (yangi hisob bilan 10 dekabr) kuni kechqurun qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis Majlisiga havola etadi". Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qildi.

28 noyabr (yangi hisob bilan 11 dekabr) da tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston Muxtoriyati, deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kuni yig'ilishda Butunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi ko'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qildi. Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri xamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tinishboyev saylandi. Islom Sulton o'g'li Shoahmedov — Bosh vazir o'rinbosari, Mustafo Chuqay — tashqi ishlar vaziri, Ubaydulla Xo'jayev — harbiy vazir, Xidoyatbek Yurguli Agayev — yer va suv boyliklari vaziri, Obidjon Maxmudov — oziq-ovqat vaziri, Abduraxmon O'rozayev — ichki ishlar vazirining o'rinbosari, Solomon Abramovich Gertsfel'd — moliya vaziri lavozimlarini egalladi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Mustafo Cho'qay

Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Vazirlardan uch kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, ikki kishi O'rtacha malakali huquqshunos ekanligi muxtoriyat hukumati a'zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanidan dalolat beradi.

Qurultoyda 28 noyabr kuni Turkiston Millat Majlisi ochilishi to'g'risidagi qaror ham tasdiqlandi. Millat Majlisi 54 nafar a'zodan iborat bo'lib, qurultoy qaroriga binoan "36 nafar musulmonlar va 18 nafar g'ayri musulmonlardan saylanadur. 36 musulmon vakillari Turkistonning 5 viloyatidan bo'lib: Farg'ona — 10 nafar, Samarqand — 5 nafar, Sirdaryo — 9 nafar, Yettisuv — 6 nafar, Zakaspiy — 2 nafar; 4 nafar esa butun Turkiston shahar dumalari tarafidan tayin bo'lurlar". 18 nafar o'rin esa o'lkaning yevropalik tashkilot va fuqarolariga, jumladan, temiryo'lchilar ittifoqi, ishchi va soldat deputatlari soveti, sotsial-demokratlar, dashnoqtsutyun, yerlik juhudlar, yahudiylar, eserlar, ukrainlar, polyaklar vakillari va boshqalarga berilishi ko'zda tutilgan edi. Demak, tashkil etilayotgan hukumat tarkibiga turli siyosiy va milliy g'yp'h vakillarining qatnashuvi ko'zda tutildi. Demokratik ruxdagi milliy ziyolilar ko'rultoyda qabul qilingan dasturiy hujjatlarga o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan xalqchil va demokratik g'oyalarni kiritishdi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat Majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi. "Sho'roi Ulamo"ning rahbari Sherali Lapin Millat Majlisi tarkibiga uning raisi sifatida kiritilgan bo'lsa xam, ammo uning o'zi bu taklifni rad etdi.

Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi, irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917 yil 13 dekabrda bo'lib o'tgan fojiali voqealar muhim o'rin tugadi. O'sha kuni Toshkentda eski shahar axolisi "Muxtor Turkiston uchun!" shiori ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdi. Ammo Toshkent Sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan tartib o'rnatishga buyruq beradilar. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan o'qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to'qnashuv qurboni bo'ldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES):**

1. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998 yil 288-bet".
2. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyozuz. Com.
3. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", T., "Sharq", 2004 yil, 53-bet.
4. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi // Xalq va demokratiya, 1992, 3-4-son.
5. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018 yil 14-bet.
6. Baxrom Irzaev. "O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim" T., "Akademnashr" 2018.

7. Behbudiy B. “Tiyotr nadur”, “Oyina” jurnali, 1914 yil 10 may, №29. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 15-bet.

8. Sabirdinov A. O‘zbek romanchiligi; kecha va bugun. Izlanishlar samarasi. // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2005 yil 28 yanvar.